Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 29-avgust, № 178 (9349) Shanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

O‘ZBEKISTON – SINGAPUR MUNOSABATLARI IZCHIL RIVOJLANMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Singapur Respublikasining Katta vaziri Li Syan Lun boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Suhbat avvalida Katta vazir Singapur Prezidenti Tarman Shanmugaratnam va Bosh vaziri Lourens Vongning samimiy salomi hamda ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston – Singapur munosabatlari izchil rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Siyosiy muloqot hamda barcha darajalardagi ikki tomonlama aloqalar faol qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Tovar ayirboshlash hajmi va qo‘shma korxonalar soni jadal sur’atlarda o‘sib bormoqda. Singapurning mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritgan investitsiyalari hajmi qariyb 2 milliard dollarni tashkil etdi.

Singapur ishbilarmonlarining yurtimizdagi investitsiyaviy faoliyatini kengaytirish rejalari qo‘llab-quvvatlandi. Strategik va innovatsion sheriklik bo‘yicha o‘rta muddatli qo‘shma dasturni ishlab chiqib, unda savdo, investitsiyalar, texnologiyalar transferi, davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, inson kapitalini rivojlantirish, raqamlashtirish va boshqa yo‘nalishlarga ustuvorlik berishga kelishib olindi.

O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirish, Toshkent xalqaro moliya markazi va raqamli bank tizimini rivojlantirishda Singapurning ilg‘or tajribasini joriy etishga alohida e’tibor qaratildi.

Singapur oliy ta’lim muassasalarining mamlakatimizdagi faoliyati bundan buyon ham qo‘llab-quvvatlanishi bildirildi.

Yuqori darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish jarayonini baholash va qo‘shma rejalarni muvofiqlashtirish uchun siyosiy va iqtisodiy tuzilmalar o‘rtasida muntazam muloqotni yo‘lga qo‘yish zarurligi ta’kidlandi.

Yaqinda O‘zbekiston BMTning Mediatsiya to‘g‘risidagi Singapur konvensiyasiga qo‘shilgani olqishlandi.

Xalqaro tashkilotlar doirasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlash hamda mintaqaviy hamkorlik masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘zA.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

QAHRAMON AJDODLAR XOTIRASIGA HURMAT – MUQADDAS BURCH

Mustaqillik bayrami arafasida Vatan ozodligi yo‘lida kurashgan qahramon ajdodlarimizni minnatdorlik bilan yod etamiz. Ularning jasorati bugungi erkin hayotimiz va milliy istiqlolimizning qadrini yanada teran anglatadi.

28-avgust kuni Shahidlar xotirasi xiyoboniga davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, ulamolar, nuroniylar va ziyolilar yig‘ildi.

Qatag‘on qurbonlarini yod etish marosimida Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.

Vatan fidoyilari haqiga Qur’on tilovat qilinib, duo o‘qildi. Elga osh tortildi.

Xiyobondagi ramziy qabr yonida ham Qur’on tilovat qilindi. Shu yerda davlatimiz rahbarining ulamolar va ziyolilar bilan tarixiy xotirani asrash, qatag‘on qurbonlari nomini tiklash hamda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari yuzasidan muloqoti bo‘ldi.

– Shu kunlarda el-yurtimiz bilan birgalikda mustaqilligimizning 35 yilligini katta xursandchilik bilan kutib olyapmiz, – dedi Shavkat Mirziyoyev. – O‘ttiz besh yildan buyon hech kimga qaram bo‘lmasdan, mana shunday tinch va tiniq osmon ostida erkin va farovon yashayapmiz. Bu – katta baxt, bebaho boylik. Shunday ulug‘ kunlarda istiqlol va ozodlik yo‘lida halok bo‘lgan qahramon ajdodlarimizni eslash, ularning xotirasiga hurmat bajo keltirish – muqaddas burchimiz.

Davlatimiz rahbari fidoyi ajdodlarimizning qahramonligi hech qachon unutilmasligi, ularning jasorati xalqimiz uchun hamisha ma’naviy kuch manbai bo‘lib qolishini ta’kidladi.

– Barcha islohotlarimiz markazida turgan “Inson qadri uchun!” degan ezgu g‘oya jasur ota-bobolarimizning ruhlarini shod etish, orzu-niyatlarini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha ishlarimizni yanada kuchaytirishni talab etadi. Bu aziz insonlar xotirasi qancha e’zozlansa, bugungi tinch hayotimiz, milliy istiqlolimiz qadri shuncha oshadi, – dedi Prezident.

(Davomi 2-betda).

YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO‘LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAYLIK!

VATANIMIZNING ENG ULUG‘ BAYRAMI

Yangi Toshkent shahrida mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali tadbirdan reportaj

Buyuk shoir va mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy *“Kimsa yuz yil komronlig‘ qilsa, bilkim, arzimas, Dahr aro bir lahza bo‘lmoqqa birov komi bila”,* deb yozarkan, inson yuz yil davomida o‘z xohishi, irodasi va ixtiyori bilan yashagan bo‘lsa-yu, ammo bir lahzaga erkidan mahrum etilsa, o‘sha qaramlik alami butun umrlik baxtni soya ostida qoldirishini nazarda tutadi.

Darhaqiqat, bir lahzalik erksizlik ham abadiyatdek og‘ir. Erkinlik esa chinakam baxtning o‘lchovi, o‘z inon-ixtiyoriga egalik inson qadrining haqiqiy mezonidir. Shu ma’noda, millatning komronligi uning o‘z taqdiri, o‘z yo‘li, o‘z kelajagi ustidan o‘zi qaror qabul qila olishi – milliy ixtiyor va milliy erkka ega bo‘lishi bilan belgilanadi.

Taassufki, elimiz bir asrdan ziyod vaqt mobaynida mustamlakachilik sharoitida, adolatsizlik va zo‘ravonlik iskanjasida yashadi. O‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqidan mahrum etildi. Ona tilining qadrini to‘la namoyon qilish, buyuk o‘tmishi haqida so‘zlash, ajdodlari bilan faxrlanish, kelajak haqida o‘z orzu-umidlarini dadil bayon etish ham oson kechmadi. Millatning ruhiga soya solgan bu zulmatli davrlar xalq xotirasidan hech qachon o‘chmaydi.

Ammo zulm qancha uzoq davom etmasin, erkka intilish tuyg‘usini inson qalbidan o‘chira olmaydi. Zero, ozodlik – xalqning qoniga, xotirasiga, ma’naviy genetikasiga singib ketgan buyuk ehtiyoj.

Xalqimiz ham ana shu muqaddas ehtiyojni qalbida asrab, og‘ir sinovlardan boshini baland tutib o‘tdi. Turli mashaqqat va qiyinchiliklar uni sindirmadi, aksincha, tobladi. O‘zligini anglagan, taqdiri hal bo‘layotgan pallada bir maqsad atrofida jipslashgan xalq bir musht bo‘lib tarix maydoniga chiqdi. Asrlar davomida shakllangan irodasini, qat’iyati va matonatini yana bir bor namoyon etdi. 1991-yil 1-sentabr – O‘zbekiston xalqining asriy orzulari ro‘yobga chiqqan, taqdirimizni o‘z qo‘limizga olgan buyuk sana sifatida tarix zarvaraqlaridan joy oldi. Bu kun Mustaqillik kuni, umumxalq bayrami deb e’lon qilindi.

Shu kundan boshlab tariximizning yangi sahifasi ochildi. Mustamlakachilik zulmi va adolatsizliklardan zulmatga chulg‘angan qalblarga umid ziyosi kirib keldi. Xalqimizning qorong‘u, rutubatli va hazin tunlari tiniq, musaffo, xushhavo tonglarga ulandi.

(Davomi 3-betda).

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ BESH YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!

Hurmatli mehmonlar!

Bugun muqaddas Vatanimiz mustaqilligining qutlug‘ o‘ttiz besh yillik bayramini katta iftixor va tantana bilan nishonlayapmiz.

Aziz xalqimiz, jumladan, muhtaram nuroniylarimiz, shijoatli yoshlarimiz, mo‘tabar ayollarimizni, yurtimizdagi barcha millat va elat vakillarini, xorijdagi vatandoshlarimizni ushbu ayyom bilan chin yurakdan samimiy tabriklayman.

Eng ulug‘ bayramimiz Yangi Toshkentda o‘tkazilayotgani tantana shukuhini yanada oshirmoqda.

Kelgusida ilm-fan, ta’lim va madaniyat markazi bo‘ladigan ushbu hududda kuni kecha Yangi O‘zbekiston universiteti, Nizomiy Ganjaviy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, O‘zbekiston milliy kutubxonasining muhtasham binolarini ishga tushirdik.

Bugun sizlarning ishtirokingizda ochiladigan favvora dunyodagi eng baland musiqali favvora sifatida Ginnesning rekordlar kitobidan joy olgani ham bayram kayfiyatiga yanada baland ruh bag‘ishlaydi.

Bir necha yuz yillik orzular ro‘yobga chiqayotgan bu betakror makonda butun xalqimiz bilan hali yana ko‘plab quvonchli va tarixiy voqealarga guvoh bo‘lamiz.

Aminmanki, Yangi Toshkent poytaxtimizning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib, biz barpo etayotgan Yangi O‘zbekistonning kuch-qudratini namoyon etadigan chinakam taraqqiyot markaziga aylanadi!

Qadrli do‘stlar!

Biz 1991-yilda xalqimizning xohish-irodasi va qat’iyati bilan o‘z davlat mustaqilligimizni qo‘lga kiritdik. Aslida buyuk istiqlolimiz ildizlari uch ming yildan ziyod bo‘lgan davlatchilik an’analarimiz va qadimiy sivilizatsiyamiz tarixiga borib taqaladi.

Birinchi va Ikkinchi Renessans davrida Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Mir Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarimiz bashariyat tafakkuri xazinasini boyitgan.

Sohibqiron Amir Temur bobomiz barpo etgan davlat esa adolat va bunyodkorlik timsoli sifatida tarix zarvaraqlaridan munosib o‘rin olgan.

Vatan ozodligi va milliy istiqlol yo‘lida jonini fido qilgan Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon kabi jadid bobolarimizning hurriyat haqidagi orzu-niyatlari bugun Yangi O‘zbekistonda to‘liq ro‘yobga chiqmoqda.

Mustaqillik, eng avvalo, bizga shon-u sharafimizni, muqaddas dinimizni, ona tilimizni, unutilayotgan milliy qadriyatlarimizni qaytarib berdi.

Istiqlol tufayli biz o‘zligimizni angladik, nomi hamisha e’zozda bo‘lgan ota-bobolarimizning munosib vorislari ekanimizni butun dunyoga namoyon etdik.

Ushbu hayajonli daqiqalarda bugungi erkin hayot uchun jonini fido qilgan ulug‘ ajdodlarimiz, jadidlar xotirasiga ta’zim bajo keltiramiz.

Mana shu tarixiy sanada o‘tgan 35 yil davomida mustaqilligimizni mustahkamlashga munosib hissa qo‘shgan barcha marhum yurtdoshlarimizning fidokorona mehnati va jasoratini yana bir bor e’tirof etishni joiz deb bilamiz.

Birinchi Prezidentimiz, atoqli davlat va siyosat arbobi Islom Abdug‘aniyevich Karimovning yorqin xotirasini ehtirom bilan yod etamiz.

Hurmatli bayram ishtirokchilari!

Mustaqillikning buyuk ahamiyati, avvalo, inson qadri va erkin hayotida namoyon bo‘ladi. Shu bois biz islohotlarni boshlagan birinchi kunlardanoq xalqning qalbiga quloq soldik, aholining dardiga darmon bo‘lishni maqsad qildik. “Inson qadri uchun!” degan g‘oyani davlat siyosatining markaziga olib chiqdik. Birinchi galda “paxta qulligi”, “majburiy mehnat va bolalar mehnati”, “konvertatsiya cheklovi”, “propiska” kabi odamlarni yillar davomida qiynab kelgan muammolarga barham berdik.

Eng asosiysi, fuqarolarimiz yuragidagi qo‘rquv hamda hadik o‘rnini ishonch va xotirjamlik egalladi. Har bir inson erkin va farovon yashaydigan jamiyat barpo etish uchun keyingi o‘n yilda tinimsiz izlandik, qattiq mehnat qildik.

Katta siyosiy iroda ko‘rsatib, O‘zbekistonni dunyoga keng ochdik. Xususan, chegara muammolari hal qilindi, qo‘shnilarimiz bilan do‘stlik va hamkorlik mustahkamlandi. Valyuta, soliq, bojxona va investitsiya siyosatida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Natijada “Iqtisodiy erkinlik indeksi”dagi o‘rnimizni 80 pog‘ona yaxshilab, “iqtisodiyoti mo‘tadil erkin” davlatlar qatoridan joy oldik.

Ilgari iqtisodiyotimizga yiliga 2-3 milliard dollar xorijiy investitsiya olib kelingan bo‘lsa, hozirgi paytda 40 – 50 milliard dollar chet el sarmoyasi jalb qilinmoqda. Yurtimizga investitsiyalar bilan birga ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy bilim va yangi iqtisodiy imkoniyatlar kirib kelmoqda.

Biz uch yil oldin 2030-yilda yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga yetkazishni reja qilgan edik. Global logistikadagi uzilishlar, dunyodagi notinch vaziyatga qaramasdan, bu vazifani shu yilning o‘zida ortig‘i bilan amalga oshiramiz va daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kiramiz.

(Davomi 2-betda).

HINDISTON BOSH VAZIRI DAVLAT TASHRIFI BILAN O‘ZBEKISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi 29-30-avgust kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘ladi.

Bo‘lajak muzokaralar kun tartibidan O‘zbekiston – Hindiston strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash hamda ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari o‘rin olgan.

Tizimli siyosiy muloqot va madaniy-gumanitar almashinuvni kengaytirish, savdo, energetika, kimyo, geologiya, sog‘liqni saqlash, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi, mashinasozlik va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida aniq dasturlar hamda kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga ustuvor e’tibor qaratiladi.

Xalqaro siyosat va mintaqaviy kun tartibining dolzarb masalalari hamda ko‘p tomonlama tuzilmalar doirasidagi hamkorlik yuzasidan fikr almashiladi.

Uchrashuv yakunida ikki tomonlama hujjatlarning salmoqli to‘plamini imzolash ko‘zda tutilgan.

O‘zA.

Hamkorlik

O‘ZARO MANFAATLARGA TAYANGAN ISHONCH KO‘PRIGI

Hindiston Bosh vaziri Narendra Modining Prezident Shavkat Mirziyoyev taklifiga binoan 29-30-avgust kunlari davlat tashrifi bilan O‘zbekistonda bo‘lishi ikki mamlakat o‘rtasidagi strategik sheriklikni yangi,amaliy bosqichga olib chiquvchi o‘ta muhim voqelikdir. Bunday tartibdagi tashrif protokol bo‘yicha eng yuqori darajadagi diplomatik tadbir hisoblanadi va Dehlining Toshkentga markaziy strategik hamkor sifatida qarayotganidan dalolat beradi.

Dunyoning geoiqtisodiy va geosiyosiy xaritasida jadal o‘sish va global ta’sir doirasini kengaytirish nuqtai nazaridan Hindiston alohida o‘rin tutadi. Hindiston – zamonaviy, texnologik va sanoat jihatdan shiddat bilan rivojlanayotgan, global nufuzi tobora ortib borayotgan qudratli davlat bo‘lib, bugungi kunda global iqtisodiy o‘sishning asosiy lokomotivlaridan biriga aylandi. 1,5 milliardga yaqin aholiga ega ushbu mamlakat XXI asrning muhim geosiyosiy va geoiqtisodiy o‘yinchilaridan biridir.

3

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 29-avgust

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ BESH YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

E’tiborli jihat – biz bunday yuksak natijalarga xalqimizning fidokorona mehnati, intellektual salohiyati hamda millat va davlat birdamligi tufayli erishyapmiz. Ijobiy o‘zgarishlarni har bir inson, har bir oila o‘z hayotida chuqur his etyapti, desam, fikrimga qo‘shilasiz, albatta.

Yangi davrda zamonaviy uy-joyga ega bo‘lgan 650 mingdan ziyod oilaning quvonchini so‘z bilan ta’riflab bo‘ladimi?

Minglab mahallalarimizga Yangi O‘zbekiston qiyofasi kirib bormoqda.

Kambag‘allik masalasini ochiq tan olib, uni keskin qisqartirish bo‘yicha Yangi O‘zbekiston tajribasini yaratdik. Ehtiyojmand oilalarning daromadi, kasbi, salomatligi, farzandlarining ta’lim olishi va yashash sharoitini yaxshilash bo‘yicha mahallabay ishlash tizimini yo‘lga qo‘ydik.

Izchil sa’y-harakatlarimiz tufayli bugungi kunda kambag‘allik darajasini 2017-yildagi 35 foizdan 4 foizga tushirishga erishdik. Ushbu raqamlar zamirida ro‘zg‘origa baraka kirib, turmush sifati yaxshilangan 10 million insonning quvonchi va shukronalik tuyg‘ulari mujassam.

Muhtaram yurtdoshlar!

Dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egallashimiz uchun bizga bilimli, kelajak kasblarini puxta egallagan, mustaqil fikriga ega bo‘lgan yangi avlod mutaxassislari kerak. Shu bois ta’limga sifat va mazmun olib kiryapmiz. Muallimning obro‘-e’tiborini tiklab, daromadini oshirib boryapmiz.

O‘tgan o‘n yilda, aholimiz 8 millionga ko‘paygan sharoitda ham bog‘cha qamrovini 78 foizga yetkazdik. Maktablarda 1,5 million qo‘shimcha o‘quvchi o‘rni yaratildi. Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablar tashkil etilgani farzandlarimizga yetakchi xorijiy ta’lim maskanlaridan kam bo‘lmagan darajada chuqur bilim egallash uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi.

Yoshlarga xorijiy tillar va kasb-hunar o‘rganishlari uchun munosib sharoitlar yaratdik.

Oliygohlarda o‘qish uchun qulay sharoitlarni kengaytirganimiz hisobiga hozirgi kunda talabalar soni 1 million 600 ming nafarga yetdi. Quvonarlisi, yoshlarda bilim olishga ishtiyoq kuchaydi. Ota-onalar uchun farzandini oliy ma’lumotli qilish faqat orzu emas, erishsa bo‘ladigan maqsadga aylandi.

Ayniqsa, talabalarning yarmidan ko‘pini xotin-qizlar tashkil etayotgani – Uchinchi Renessansning o‘ziga xos qiyofasi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki **bilimli qizlar – bilimli oila, bilimli avlod va ma’rifatli jamiyat degani**.

Biz ta’lim bilan bir qatorda ilm-fan, zamonaviy texnologiya va innovatsiyalarni ham taraqqiyotimizning hal qiluvchi omili deb bilamiz.

Shu bilan birga, IT, sun’iy intellekt, kreativ iqtisodiyot kabi yo‘nalishlar rivojiga yangi ruh berib, juda katta harakatni boshlab yubordik. Bu orqali 10 million yoshlarimizni raqamli industriya va kelajak kasblariga olib kiramiz.

Istiqlol bayramimiz arafasida xitoylik hamkorlarimiz bilan “Samarqand – 2028” sun’iy yo‘ldoshini fazoga uchirganimiz bizga alohida g‘urur bag‘ishlaydi.

Mening niyatim: O‘zbekiston texnologiya sohalarida jahonga ilg‘or tashabbuslarni taklif qiladigan markazga aylanishi zarur.

O‘zbek tili – raqamli dunyoda ilm va texnologiya yaratiladigan til bo‘lishi lozim.

Aziz vatandoshlar!

Inson qadri haqida so‘z yuritganda, aholimizning sog‘ligi masalasiga alohida e’tibor qaratishimiz tabiiy. So‘nggi yillarda ushbu sohaga ajratilayotgan mablag‘ni 8 karradan ziyod oshirdik. Eng muhimi, sifatli tibbiy xizmat olish imkoniyati nafaqat markazda, balki hududlarda ham yaratildi.

O‘tgan davrda yurtimizda 652 ta yangi tibbiyot muassasasi barpo etilgani, xususiy sektorga keng imkoniyat berilgani tufayli tibbiy xizmatlar hajmi 3 karra oshdi. Yuqori malakali shifokorlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yib, ularga sharoit yaratganimiz o‘z natijasini beryapti. Ilgari xorijda amalga oshirilgan 100 dan ziyod murakkab diagnostika va davolash usullari bugun yurtimizda ham mukammal bajarilmoqda.

Umuman, aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 1991-yildagi 66,4 yoshdan 2025-yilda 75,4 yoshga yetgani, go‘daklar va onalar o‘limi ko‘rsatkichi 4 barobar kamaygani sohadagi islohotlarimizning eng muhim natijasidir.

Qadrli do‘stlar!

Jonajon Vatanimiz azaldan ulug‘ mutafakkirlar, aziz avliyolar, buyuk allomalar yurti bo‘lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosga munosib ravishda Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg‘inoniy yodgorlik majmualari kabi betakror ilmiy-ma’rifiy dargohlarni barpo etdik.

Bu muhtasham va tabarruk maskanlar bugun nafaqat yurtimiz va islom olami, balki butun jahon ahlining haqli e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda. Biz bunday bunyodkorlik ishlarini jadal davom ettiramiz.

Hurmatli bayram ishtirokchilari!

Bizning eng katta boyligimiz – ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan Yangi O‘zbekiston yoshlari. Intiluvchan va tirishqoq o‘g‘il-qizlarimizni qo‘llab-quvvatlash, ularga keng imkoniyatlar ochish uchun har yili 20 – 25 trillion so‘m ajratilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistondagi biznes vakillarining 35 foizini yosh tadbirkorlar tashkil etyapti.

Tokio va Parij Olimpiya hamda Paralimpiya o‘yinlarida, dunyo maydonlarida yosh sportchilarimiz erishgan tarixiy yutuqlar xalqimizga cheksiz iftixor bag‘ishladi.

Futbolchilarimiz ilk bor jahon chempionatida ishtirok etib, o‘zbek sporti tarixida yangi sahifa ochdi. Ular boshlagan yo‘l albatta davomli va zafarli bo‘ladi, deb ishonamiz.

Yaqin kunlarda Samarqandda katta sport anjumani – Jahon shaxmat olimpiadasi boshlanadi. Noyabr oyida esa mashhur grossmeysterimiz Javohir Sindorov jahon shaxmat toji uchun kurashga kirishadi.

Ushbu musobaqalarda shaxmatchi o‘g‘il-qizlarimga ulkan zafarlar tilayman!

Xalqaro fan olimpiadalarida, tanlov va festivallarda yuqori o‘rinlarni egallayotgan yoshlarimizni – Yangi O‘zbekiston yulduzlari, kelajak bunyodkorlari deb bilaman!

Oldinga qarab intilishdan va doimiy izlanishdan hech qachon to‘xtamang, aziz farzandlarim!

Muhtaram yurtdoshlar!

Bugun biz tarixning yanada mas’uliyatli va hal qiluvchi pallasida turibmiz. Mamlakatimiz taraqqiyotning mutlaqo yangi davriga qadam qo‘ymoqda. Kelgusi o‘n yillik – biz uchun **milliy yuksalish davri** bo‘ladi.

Buni faqat va faqat xalqimizning aql-zakovati, mehnati va birdamligi orqali o‘zimiz bunyod etamiz. Shu maqsadda kelgusi yillarda yurtimizda inson qadrini yanada yuksaltiradigan 7 ta milliy dasturni amalga oshiramiz.

Birinchi milliy dastur bilim va malakani kelgusi taraqqiyotimizning asosiy kapitaliga aylantirishdan iborat bo‘ladi.

Bolalarning 6 yoshli tayyorlov guruhlariga qamrovini qisqa muddatda 100 foizga olib chiqamiz. Xususiy bog‘cha tashkil qilish bo‘yicha mavjud imtiyozlar saqlab qolinadi.

Barcha maktablar xalqaro baholash dasturlari bilan to‘liq qamrab olinadi.

Yurtimizdagi texnikumlarda xalqaro ta’lim standartlarini joriy etamiz. Ularda yoshlarimizni yuqori daromadli kasblarga o‘qitishni yo‘lga qo‘yib, qamrovni 1 millionga yetkazamiz. Bir so‘z bilan aytganda, Yangi O‘zbekistonda kasb egallamagan birorta yigit-qiz qolmaydi.

Biz kelgusi yillarda kamida 10 ta universitetimizni TOP mingtalikka kiritishni katta marra sifatida belgilaymiz.

Ikkinchi milliy dastur xalqimizning sog‘lom bo‘lishi va uzoq umr ko‘rishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu maqsadda aholi salomatligi bilan bog‘liq davlat xarajatlarini kelgusi besh yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5 foizga yetkazamiz.

Biz tibbiyotda profilaktikani kuchaytirish orqali salomatlikni asrash modeliga o‘tamiz. Davlat tibbiy sug‘urtasi mamlakatning barcha xonadonlariga kirib boradi.

Ixtisoslashgan tibbiyotda raqobat muhitini kuchaytirish maqsadida dunyoning eng nufuzli kamida 5 ta klinikasini olib kelamiz.

Yurtimizni zamonaviy tibbiyot, farmatsevtika, biotexnologiyalar va tibbiy ta’lim taraqqiy etgan maskanga aylantiramiz.

Hurmatli tadbir ishtirokchilari!

Uchinchi milliy dastur – iqtisodiyotimizni yuqori texnologiya va mehnat unumdorligi modeliga o‘tkazish.

Buning uchun kelgusi o‘n yilda 450 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilamiz. Iqtisodiyotda yuqori o‘sish sur’atini saqlagan holda 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmi 300 milliard dollarga yetkaziladi, sanoatda 2 millionta yuqori daromadli ish o‘rni yaratiladi.

Yoshlarimizning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishda startap, venchur va sun’iy intellektni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishga aylanadi.

Shuningdek, kichik biznes – o‘rta biznesga, o‘rta korxonalar esa yirik kompaniya va korporatsiyalarga aylanishi uchun yaxlit ekotizimni yo‘lga qo‘yamiz. Bularning hisobiga kelgusi o‘n yilda jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi 10 ming dollarlik marradan oshadi.

Aziz do‘stlar!

Global iqlim o‘zgarishi sharoitida suv va ekologiya masalalari yanada dolzarb bo‘lib bormoqda.

Shu bois **to‘rtinchi milliy dastur suv va tabiatga munosabatni tubdan o‘zgartirishga qaratiladi.**

Kelgusi besh yilda ekin maydonlarida suv tejaydigan texnologiyalar qamrovini 100 foizga olib chiqamiz. Bu – umummilliy marraga aylanadi.

Tabiatga munosabat – xalqning madaniyati, davlatning mas’uliyati va taraqqiyotning sifat ko‘rsatkichi. Shuning uchun mamlakatimizda “Yashil makon” umummilliy harakatini yangi sifat bosqichiga olib chiqamiz. Maktab, bog‘cha, shifoxona va ko‘p qavatli uylar atrofidagi yashil hududlar jamiyatning daxlsiz boyligi sifatida muhofaza qilinadi. Yaqin yillarda tuman va shahar markazlarida yashillik ko‘lamini 30 foizga yetkazamiz.

Qadrli yurtdoshlar!

Adolat qaror topgan joyda iqtisodiy o‘sish ham, ijtimoiy ishonch ham yuksaladi.

Bu borada **beshinchi milliy dastur – sud mustaqilligini kuchaytirish va qonun ustuvorligini ta’minlashni umumiy qadriyatga aylantirishdan iborat.**

Buning uchun huquqiy tarbiyani maktabdan boshlab aniq tizim asosida yo‘lga qo‘yamiz. Fuqarolar va tadbirkorlarning qonuniy kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha islohotlarimizni qat’iy davom ettiramiz. Kiberjinoyatchilik, giyohvandlik va odam savdosining oldini olish bo‘yicha choralarni yanada kuchaytiramiz.

“Yashirin iqtisodiyot”, uyushgan jinoyatchilik, ayollar va bolalar huquqini kamsitishga qarshi kurashni yangi bosqichga ko‘taramiz.

Aziz vatandoshlar!

Odamlarimizning kayfiyati, oilalarning farovonligi, yoshlarning orzu-istagi, tadbirkorlarning tashabbuskorligi, eng avvalo, mahallada namoyon bo‘ladi.

Shuning uchun **oltinchi milliy dastur mahallani jamiyat taraqqiyotining asosiy buyurtmachisiga aylantirishga yo‘naltiriladi.**

Endi davlat dasturlarini ishlab chiqish bo‘yicha yondashuv butkul o‘zgaradi. Tuman byudjeti, investitsiya dasturi hamda infratuzilma loyihalari mahalla buyurtmasi asosida ishlab chiqiladi. Bunda fuqarolarning talab va ehtiyoji, mahallaning farovonligi – eng asosiy mezon sifatida belgilanadi.

Hurmatli bayram ishtirokchilari!

Yettinchi milliy dastur – O‘zbekistonning tinchlik va do‘stlik diyori, bag‘rikeng o‘lka sifatidagi nufuzini har tomonlama yuksaltirishdan iborat.

Yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari, 16 ta diniy konfessiya a’zolari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda.

Bugungi notinch zamonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik xalqimizning oltin fondi, bebaho boyligidir.

Bizning ochiq, pragmatik va tinchlikparvar siyosatimiz uzoq muddatli taraqqiyotimizni ta’minlashga qaratilgan.

Markaziy Osiyoda ahil qo‘shnichilik, strategik sheriklik va do‘stlik aloqalarini kengaytirishda tarixiy yutuqlarga erishildi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Yevropa Ittifoqi, Amerika, Osiyo – Tinch okeani mintaqasi va arab-musulmon dunyosi davlatlari bilan munosabatlarimiz yanada mustahkamlandi. Sharqiy Yevropa, Afrika va Lotin Amerikasida yangi hamkorlik yo‘nalishlari ochildi.

Mamlakatimiz bilan diplomatik munosabat o‘rnatgan davlatlar soni qariyb 170 taga yetdi.

O‘zbekistonni xalqaro diplomatiyaning muhim markaziga aylantirish uchun ko‘p qirrali, vazmin va muvozanatli tashqi siyosatni davom ettiramiz. Iqtisodiy diplomatiya tashqi siyosatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Mamlakatimiz 2027 – 2029-yillarda Qo‘shilmaslik harakatiga ilk marotaba raislik qiladi. Dunyodagi 120 dan ortiq davlatni birlashtirgan ushbu global tuzilma samaradorligini oshirishga qaratilgan tashabbuslarni faol ilgari suramiz.

Yon qo‘shnimiz bo‘lgan Afg‘oniston bo‘yicha konstruktiv siyosatimizni qat’iy davom ettiramiz.

Fursatdan foydalanib, bugungi tantanamizda ishtirok etayotgan diplomatik korpus vakillariga, xorijiy ommaviy axborot vositalari xodimlariga, AQSh, Turkiya va Singapurdan kelgan yuqori martabali mehmonlarimizga samarali hamkorlik uchun alohida minnatdorlik bildiraman.

Aziz va muhtaram vatandoshlarim!

Bir fikrni ishonch bilan aytmoqchiman.

Biz bugun kechagidan kuchlimiz. Nasib etsa, ertaga bundan ham kuchli bo‘lamiz.

O‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot yo‘limiz bizga bir haqiqatni o‘rgatdi: xalq va davlat yagona maqsad yo‘lida birlashib, astoydil harakat qilsa, zabt etib bo‘lmaydigan marraning o‘zi yo‘q.

Bunday buyuk qudratga ega xalq va davlatni yenga oladigan kuchning o‘zi yo‘q.

Biz yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va buyuk kelajagimizni birgalikda barpo etamiz!

Ishonchim komil, matonatli, mard va oliyjanob xalqimiz o‘z oldiga qo‘ygan ulug‘ maqsadlarga albatta yetadi.

Vatanimizning oltin davrini, yangi buyuk tarixini albatta barchamiz birgalikda yaratamiz!

Bizga mustaqillik ne’matini bergan Parvardigorimizga cheksiz shukronalar bo‘lsin!

Istiqlolimiz ijodkori va haqiqiy bunyodkori bo‘lgan xalqimizga shon-sharaflar bo‘lsin!

Sizlarni, sizlar orqali butun xalqimizni bugungi ulug‘ bayram – O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz besh yilligi bilan yana bir bor tabriklayman.

Yurtimiz tinch, xonadonlarimiz obod va farovon bo‘lsin!

Yashasin O‘zbekiston Respublikasi!

Yashasin O‘zbekiston xalqi!

QAHRAMON AJDODLAR XOTIRASIGA HURMAT – MUQADDAS BURCH

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Keyingi yillarda qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish va tarixiy adolatni tiklash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shahidlar xotirasi xiyobonidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi to‘liq rekonstruksiya qilinib, ekspozitsiyasi boyitildi, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlandi. Raqamli tizimlar va sun’iy intellekt yordamida ko‘rgazmalarning ta’sirchanligi oshirildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda tashkil etilgan qatag‘on qurbonlari muzeylari ham zamon talablari asosida jihozlandi. Ularning fondlari dunyoning turli nuqtalaridan keltirilgan noyob hujjatlar va fotosuratlar bilan boyitilmoqda.

2021 – 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan qatag‘on qurboni bo‘lgan 1 ming 200 dan ziyod yurtdoshlarimiz oqlandi. Joriy yilda sobiq mustabid tuzum davrida nohaq ayblanib, turli muddatlarga qamalgan yoki o‘limga hukm etilgan yana 161 nafar vatandoshimizning nomi oqlandi.

So‘nggi besh yilda jadid bobolarimiz merosini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar muntazam o‘tkazib kelinmoqda. Mustabid tuzumda nohaq qurbon bo‘lgan vatandoshlarimizning nomlari aniqlanib, ularning faoliyati, ilmiy va ijodiy merosi o‘rganilmoqda. Yuzlab, minglab fidoyi yurtdoshlarimiz haqidagi ma’lumotlar kitoblar, matbuot va ommaviy axborot vositalari orqali xalqimizga yetkazilmoqda.

Muloqotda o‘tgan asrning 80-yillarida ham minglab vatandoshlarimiz “paxta ishi”, “o‘zbek ishi” degan soxta ayblovlar bilan siyosiy qatag‘onga uchragani qayd etildi. 1983 – 1990-yillarda 40 ming nafar o‘zbekistonlik tergov qilinib, 5 ming nafari jinoiy javobgarlikka tortilgan. Bugun bu borada ham tarixiy adolat tiklanmoqda. Bunday ezgu ishlar izchil davom ettirilishi ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari dunyoda qurolli mojarolar va siyosiy qarama-qarshiliklar kuchayib, ular bizga yaqin mintaqalarga ham kirib kelayotgani tashvishli ekanini ta’kidladi. Bu yurtimizdagi tinchlikni qadrlash, yanada jips va hamjihat bo‘lib yashashni talab etadi.

– Bizning yo‘limiz – tinchlik, do‘stlik va hamkorlik yo‘li. O‘zbekiston ushbu yo‘ldan hech qachon ortga qaytmaydi, – dedi Prezident.

Bugun yurtdoshlarimiz dunyoning istalgan mamlakatiga emin-erkin borib kelmoqda, O‘zbekiston barcha davlatlar bilan tenglik asosida hamkorlik qilmoqda. Bu mustamlakachilik zanjirlari va “paxta qulligi”dan butunlay ozod bo‘lganimizning amaliy ifodasidir.

Hayot va kelajakni bilim hamda ma’rifat asosida qurish, uzoq-yaqin mamlakatlar bilan do‘stona hamkorlik qilish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim sharti ekani ta’kidlandi. Buyuk jadid bobolarimiz bejiz millatni uyg‘oqlikka, bilim va ma’rifatga chaqirmagan. Ularning kurash va ma’rifat maktabi bugun ham g‘oyat dolzarb ahamiyatga ega.

Shu bois yoshlarning sifatli ta’lim olishi, vatanparvar insonlar bo‘lib voyaga yetishiga katta e’tibor qaratilmoqda. So‘nggi o‘n yilda oliygohlar soni 77 tadan 205 taga yetkazildi, qabul kvotalari muntazam oshirib borildi. Jahondagi “TOP – 100” talikka kiradigan oliygohlarda 3 ming 500 dan ziyod farzandlarimiz ta’lim olmoqda. Maktab va maktabgacha ta’lim tizimlarida ham muhim o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

– Yoshlarni milliy g‘urur asosida tarbiyalashga alohida ahamiyat berishimiz kerak. Milliy g‘urur – insonning qalbini, yuragini, butun vujudini kuch-g‘ayratga to‘ldiradigan qudratli kuch. Milliy g‘ururi bor odam hech qachon yengilmaydi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Poytaxtimizda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi barpo etildi, Samarqanddagi Imom Buxoriy majmuasi butunlay qaytadan bunyod qilindi, Marg‘ilonda Burhoniddin Marg‘inoniy nomidagi markaz ishga tushirildi. Bular Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘li – tinchlik, do‘stlik va bunyodkorlik, bilim hamda ma’rifat yo‘li ekanini tasdiqlaydi.

So‘nggi o‘n yilda diniy-ma’rifiy sohada amalga oshirilgan islohotlar tufayli 100 mingdan ziyod yurtdoshlarimiz hojilik maqomiga ega bo‘ldi. Davlatimiz rahbari diniy jamoatchilik jamiyatda mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, yoshlarga to‘g‘ri tarbiya berish jarayonlarida yanada faol ishtirok etishiga ishonch bildirdi.

– Bugun mana shu tabarruk maskanda turib, tinch-osoyishta hayotimiz, erishayotgan yutuqlarimiz uchun Yaratganga behisob shukronalar aytamiz. Mana shunday ozod va farovon kunlarni orzu qilib, armon bilan o‘tgan qahramon ota-bobolarimiz, jasur momolarimizning ruhlari shod bo‘lsin! Yurtimiz tinchlik, taraqqiyot va farovonlik diyori sifatida yanada gullab-yashnasin! Alloh taoloning o‘zi Vatanimizni panohida asrasin! – dedi Prezident.

Ulamolar qatag‘on qurbonlari va Vatan ozodligi yo‘lida jon fido etgan ajdodlarimiz ruhiga duo qilib, yurtimizdagi tinchlik-xotirjamlik, fayz-u baraka barqaror bo‘lishini tiladilar.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida bo‘lib, Mustaqillik monumenti poyiga gulchambar qo‘ydi.

Ushbu mahobatli majmuada xalqimizning ko‘p asrlik tarixi, buyuk allomalarimiz va jahongir ajdodlarimizning siymolari, yurtimiz taraqqiyotidagi muhim voqealar o‘z ifodasini topgan. Monument cho‘qqisidagi Humo qushi ozodlik va ezgulik g‘oyalarini, xalqimizning oliyjanob orzu-intilishlarini ifoda etadi.

Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan marosimda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati, Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi hamda Toshkent shahar jamoatchiligi vakillari ishtirok etdi.

O‘zA.

Mustaqillik bayrami kunlari Toshkent – Samarqand – Toshkent, Toshkent – Buxoro – Toshkent va Toshkent – Urganch – Toshkent yo‘nalishlarida yuqori tezlikdagi elektropoyezdlarning qo‘shimcha qatnovlari tashkil etiladi.

VATANIMIZNING ENG ULUG‘ BAYRAMI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Istiqlol – ana shu tongning nomi edi. Uning har bir yili ozod Vatanimiz solnomasida alohida bir yorqin sahifa bo‘lib muhrlandi.

Ayniqsa, keyingi o‘n yil milliy tariximizga misli ko‘rilmagan islohotlar davri bo‘lib kirdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida xalqimizning fidokorona mehnati, bunyodkorlik salohiyati, yuksalish sari dadil intilishi qanday buyuk ishlarga qodir ekanini butun dunyoga namoyon qilyapmiz. Yangi shaharlar, zamonaviy korxonalar, maktab va oliy ta’lim maskanlari, obod mahallalar, ravon yo‘llar, ko‘rkam xiyobonlar – bularning barchasida mustaqillikning bunyodkor ruhi aks etmoqda.

Eng muhimi, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi davrida xalqimiz o‘zini yanada teranroq angladi. Erkinlikning qadrini, Vatanning buyuk ne’matligini, o‘z taqdirini o‘zi belgilash qanday ulug‘ baxt ekanini chuqur his qildi.

Shuning uchun ham Mustaqillik bayrami xalqning o‘zligini, irodasini, orzu-armonlarini namoyon etadigan, kecha bilan bugunni, xotira bilan istiqbolni bog‘laydigan buyuk ma’naviy ko‘prikdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2026-yil 1-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, bu yilgi eng ulug‘ ayyomimiz “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yarataylik!” degan ezgu shior ostida keng nishonlanmoqda.

Bu shiorda bugungi O‘zbekistonning qalb urishi bor. Unda birlik ham, Vatanga sadoqat ham, bunyodkorlik ham, kelajakka ishonch ham mujassam. Zero, yangi hayotni, buyuk kelajakni, avvalo, bir tan-u bir jon bo‘lgan xalq yaratadi.

Ayni kunlarda mamlakatimizning barcha hududlarida – mahalla-yu guzarlarda, bog‘-u xiyobonlarda, ko‘chalar va xonadonlarda bayram shukuhi kezmoqda. Gullar, davlat bayroqlari va milliy bezaklar, odamlar ko‘zidagi quvonch, qalbidagi faxr va ertangi kunga ishonch yurt uzra shodiyonaning shukuhini aks ettirmoqda.

2026-yil 28-avgust. Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan asosiy tantanalar Yangi Toshkent shahrida bo‘lib o‘tdi. Bu yerga mamlakatimiz hayotining turli jabhalarida faoliyat yuritayotgan, yurt ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shayotgan insonlar – Oliy Majlis Senati a’zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, fan, madaniyat va san’at namoyandalari, ishlab chiqarish ilg‘orlari, xorijiy davlatlar elchixonalari hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, nuroniylar, yoshlar jam bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bayram tantanasida ishtirok etib, nutq so‘zladi.

Davlatimiz rahbari butun xalqimizni mustaqilligimizning 35 yilligi bilan samimiy muborakbod etdi.

Yurtboshimiz Mustaqillik tantanalari Yangi Toshkentda o‘tkazilayotgani bayram shukuhini yanada oshirayotganini ta’kidladi. Bugun poytaxtimiz yonida qad rostlayotgan Yangi Toshkent timsolida Yangi O‘zbekistonning ertangi qiyofasi, ulkan taraqqiyot salohiyati va bunyodkorlik ruhi namoyon bo‘lmoqda. U poytaxtimizning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib, mamlakatimizning kuch-qudratini namoyon etadigan chinakam taraqqiyot markaziga aylanishiga ishonch bildirildi.

Marosimda bugungi erkin hayot uchun jonini fido qilgan ulug‘ ajdodlarimiz va jadidlar xotirlanib, mustaqilligimizni mustahkamlashga hissa qo‘shgan yurtdoshlarimizning mehnati va jasorati e’tirof etildi.

Birinchi Prezidentimiz, atoqli davlat va siyosat arbobi Islom Karimovning yorqin xotirasi ehtirom bilan yodga olindi.

Davlatimiz rahbari mustaqillikning buyuk ahamiyati, avvalo, inson qadri va erkin hayotida namoyon bo‘lishini ta’kidladi. Bu – istiqlolning eng muhim mezoni. Zero, davlat mustaqilligi inson o‘z hayotini erkin qurishi, qobiliyatini namoyon etishi, orzu va maqsadlarini amalga oshirishi uchun imkoniyat yaratgandagina tom ma’nodagi qadr-qimmat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, islohotlarning dastlabki kunlaridan xalqning qalbiga quloq solish, dardiga darmon bo‘lish ustuvor maqsad etib belgilandi va “Inson qadri uchun!” g‘oyasi davlat siyosatining markaziga olib chiqildi.

Birinchi galda “paxta qulligi”, “majburiy mehnat va bolalar mehnati”, “konvertatsiya cheklovi”, “propiska” kabi odamlarni yillar davomida qiynab kelgan muammolarga barham berildi.

Bu o‘zgarishlarning har biri, aslida, inson qaddini tiklash, uning mehnatiga, huquqiga, orzu-umidlariga hurmatni qaror toptirish yo‘lidagi zalvarli qadamlar edi. Eng muhimi, fuqarolar yuragidagi qo‘rquv va hadik o‘rnini ishonch va xotirjamlik egalladi. Insonning o‘z so‘ziga, mehnatiga, kelajagiga ishonch bilan qarashi jamiyatdagi ulkan ma’naviy o‘zgarishlarning eng muhim belgisiga aylandi.

Katta siyosiy iroda bilan O‘zbekiston dunyoga keng ochildi, chegara muammolari hal qilinib, qo‘shni davlatlar bilan do‘stlik va hamkorlik mustahkamlandi. Bir paytlar ajratib turgan chegaralar o‘rnini yaqinlashuv, ishonch va yaxshi qo‘shnichilik ruhi egalladi.

Iqtisodiy sohadagi o‘zgarishlar ham ana shu erkinlik va ochiqlik tamoyilining amaliy ifodasi bo‘ldi. Valyuta, soliq, bojxona va investitsiya siyosatidagi tub o‘zgarishlar natijasida mamlakatimizning Iqtisodiy erkinlik indeksidagi o‘rni 80 pog‘ona yaxshilandi.

Raqamlar esa o‘zgarishlar ko‘lamini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Ilgari iqtisodiyotimizga yiliga 2-3 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilingan bo‘lsa, hozir mazkur ko‘rsatkich 40 – 50 milliard dollarni tashkil etmoqda. Ammo bu raqamlarning qiymati faqat milliardlar bilan o‘lchanmaydi. Investitsiyalar bilan birga yurtimizga ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy bilim va yangi iqtisodiy imkoniyatlar ham kirib kelmoqda. Bu yangi ish o‘rinlari, yangi kasblar, yangi bilimlar va insonning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun yangi imkoniyatlar demakdir.

Uch yil oldin 2030-yilda yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga yetkazish reja qilingan edi. Global logistikadagi uzilishlar va dunyodagi notinch vaziyatga qaramasdan, ushbu marra joriy yilning o‘zida ortig‘i bilan bajarilishi va O‘zbekiston daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirishi qayd etildi.

Yangi davrda 650 mingdan ziyod oilalar zamonaviy uy-joyga ega bo‘ldi, minglab mahallalarga Yangi O‘zbekiston qiyofasi kirib bormoqda. Obod xonadon, farovon mahalla, zamonaviy infratuzilma, munosib turmush sharoiti – bularning barchasi inson qadriga munosabatning amaliy ifodasi.

Kambag‘allik masalasi ochiq tan olinib, ehtiyojmand oilalarning daromadi, kasbi, salomatligi, farzandlarining ta’limi va yashash sharoitini yaxshilash bo‘yicha mahallabay ishlash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Izchil sa’y-harakatlar tufayli kambag‘allik darajasi 2017-yildagi 35 foizdan 4 foizga tushirildi. Bu raqamning ortida ro‘zg‘origa baraka kirib, mehnat qilish, kasb egallash, farzandlarini o‘qitish, munosib hayot

kechirish imkoniyatiga ega bo‘lgan millionlab insonlar taqdiri mujassam.

Prezidentimiz dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egallash uchun bilimli, kelajak kasblarini puxta egallagan va mustaqil fikrlaydigan yangi avlod mutaxassislari zarurligini ta’kidladi. Shu bois ta’limga sifat va mazmun olib kirilib, muallimning obro‘-e’tibori tiklanmoqda, daromadi oshirib borilmoqda.

O‘tgan o‘n yilda aholi 8 millionga ko‘paygan sharoitda ham maktabgacha ta’lim qamrovi 78 foizga yetkazildi, maktablarda 1,5 million qo‘shimcha o‘quvchi o‘rni yaratildi.

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek, xorijiy tillar va kasb-hunar o‘rganish uchun yaratilgan sharoitlar ta’lim tizimiga yangi mazmun olib kirdi.

Oliygohlardagi talabalar soni 1 million 600 ming nafarga yetdi. Bu raqamning o‘ziyoq mamlakatimizda bilim olishga imkoniyatlar qanchalik kengayganini ko‘rsatadi. Eng muhimi, ota-onalar uchun farzandini oliy ma’lumotli qilish faqat orzu emas, erishsa bo‘ladigan maqsadga aylandi.

Ta’lim bilan bir qatorda ilm-fan, zamonaviy texnologiya va innovatsiyalar taraqqiyotimizning hal qiluvchi omili sifatida belgilandi. IT, sun’iy intellekt va kreativ iqtisodiyot rivojiga yangi ruh berilib, 10 million yoshni raqamli industriya va kelajak kasblariga olib kirish maqsad qilindi.

Prezidentimiz O‘zbekiston texnologiya sohalarida jahonga ilg‘or tashabbuslarni taklif etadigan markazga aylanishi, o‘zbek tili esa raqamli dunyoda ilm va texnologiya yaratiladigan til bo‘lishi lozimligini ta’kidladi.

Aholi salomatligini muhofaza qilishga ajratilayotgan mablag‘ so‘nggi yillarda 8 karradan ziyod oshirildi. Sifatli tibbiy xizmat olish imkoniyati markazda ham, hududlarda ham kengayib, 652 ta yangi tibbiyot muassasasi barpo etildi va xususiy sektorga keng imkoniyat berildi. Natijada tibbiy xizmatlar hajmi 3 karra oshdi, ilgari xorijda bajarilgan 100 dan ziyod murakkab diagnostika va davolash usullari yurtimizda yo‘lga qo‘yildi.

Natijada aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 1991-yildagi 66,4 yoshdan 2025-yilda 75,4 yoshga yetdi, go‘daklar va onalar o‘limi 4 barobar kamaydi.

Xalqimizning bebaho ma’naviy merosiga munosib ravishda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Burhoniddin Marg‘inoniy yodgorlik majmualari kabi betakror ilmiy-ma’rifiy dargohlar barpo etildi.

Davlatimiz rahbari Yangi O‘zbekiston yoshlarini mamlakatimizning eng katta boyligi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi deb atadi. Bugun bu ishonchni yoshlarimiz o‘z yutuqlari bilan oqlamoqda. O‘g‘il-qizlarimiz oldinga intilish va doimiy izlanishdan hech qachon to‘xtamaslikka da’vat etildi.

Prezidentimiz mamlakatimiz taraqqiyotning mutlaqo yangi davriga qadam qo‘yayotganini ta’kidladi.

– Kelgusi o‘n yillik biz uchun milliy yuksalish davri bo‘ladi, – dedi davlatimiz rahbari.

Bu yuksalishning asosiy tayanchi esa xalqimizning aql-zakovati, mehnati hamda birdamligidir. Shu maqsadda kelgusi yillarda inson qadrini yanada yuksaltiradigan yettita milliy dastur amalga oshiriladi. Ular ta’lim va tibbiyotdan tortib, yuqori texnologiyali iqtisodiyot, ekologiya, adolat, mahalla va tashqi siyosatgacha bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlarni yagona maqsad atrofida birlashtiradi.

Birinchi milliy dastur bilim va malakani taraqqiyotimizning asosiy kapitaliga aylantirishga qaratilgan. Ikkinchi milliy dastur xalqimizning sog‘lom bo‘lishi va uzoq umr ko‘rishini ta’minlashga xizmat qiladi. Uchinchi milliy dastur iqtisodiyotni yuqori texnologiya va mehnat unumdorligi modeliga o‘tkazishni ko‘zda tutadi. To‘rtinchi milliy dastur suv va tabiatga munosabatni tubdan o‘zgartirishga yo‘naltiriladi. Beshinchi milliy dastur sud mustaqilligini kuchaytirish va qonun ustuvorligini umumiy qadriyatga aylantirishga qaratiladi. Oltinchi milliy dastur mahallani jamiyat taraqqiyotining asosiy buyurtmachisiga aylantiradi. Yettinchi milliy dastur O‘zbekistonning tinchlik va do‘stlik diyori, bag‘rikeng o‘lka sifatidagi nufuzini har tomonlama yuksaltirishga hissa qo‘shadi.

Demak, kelgusi o‘n yillikka mo‘ljallangan ushbu yetti dasturning har biri inson va jamiyat hayotini to‘la qamrab oladi. Bilimli inson, sog‘lom avlod, yuqori texnologiyali iqtisodiyot, barqaror tabiat, adolatli jamiyat, kuchli mahalla va tinch tashqi muhit milliy yuksalishning o‘zaro bog‘liq ustunlariga aylanadi.

Mamlakatimiz yetakchisi nutqining yakunida xalqimizga ishonch bilan murojaat qildi:

– Biz bugun kechagidan kuchlimiz. Nasib etsa, ertaga bundan ham kuchli bo‘lamiz. O‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot yo‘limiz bizga bir haqiqatni o‘rgatdi: xalq va davlat yagona maqsad yo‘lida birlashib, astoydil harakat qilsa, zabt etib bo‘lmaydigan marraning o‘zi yo‘q. Bunday buyuk qudratga ega xalq va davlatni yenga oladigan kuchning o‘zi yo‘q. Biz yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va buyuk kelajagimizni birgalikda barpo etamiz! – dedi davlatimiz rahbari.

Sahnada O‘zbekistonning rang-barang madaniy merosi, milliy san’ati va bugungi zamonaviy qiyofasini namoyon etuvchi badiiy dastur havola qilindi. Istiqlol, Vatan, go‘zal tabiatimiz, porloq kelajagimizni madh etuvchi kuy-qo‘shiqlar yangradi.

Osmonda lazer va dronlar shousi, turfa rang mushakbozlik yig‘ilganlarga zavq-shavq ulashdi. Yangi Toshkent osmoni yorug‘ ranglarga burkandi.

Eng ulug‘, eng aziz bayram – Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi tantanalari mamlakatimizning barcha shahar-u qishloqlarida davom etmoqda.

Dilshod KARIMOV
(“Xalq so‘zi”).

O‘ZARO MANFAATLARGA TAYANGAN ISHONCH KO‘PRIGI

1

Hindiston oxirgi yillarda dunyoning eng tez rivojlanayotgan yirik iqtisodiyoti maqomini barqaror ushlab turibdi. Nominal yalpi ichki mahsulot hajmi taxminan 3,7-4,0 trln. AQSh dollari bilan dunyoda AQSh, Xitoy, Germaniya va Yaponiyadan so‘ng 5-o‘rinda turadi. Xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha YAIM taxminan 14 trln. dollardan ortiq ko‘rsatkichi bilan faqat Xitoy va AQShdan keyingi o‘rinda. Iqtisodiy o‘sish sur’ati yiliga 6,5-7,5 foiz atrofida bo‘lib, bu ko‘rsatkich global o‘sish sur’atidan ikki barobar yuqoridir.

Hindiston o‘z rivojlanishida 4 ta asosiy ustunga tayanadi. Birinchisi, demografik dividend – yosh va arzon ishchi kuchi. Mamlakat aholisining o‘rtacha yoshi 28 ni tashkil etadi. Xitoy va Yevropada bu ko‘rsatkich 40 dan oshgan. Mehnatga layoqatli yuz millionlab yoshlar sanoat va xizmatlar sohasida ulkan resurs hisoblanadi. Ikkinchisi, Hindiston “jahonning IT-autsorsing markazi”ga aylangan. IT va dasturiy ta’minot bo‘yicha global monopolistlardan biridir. Uchinchisi, u “jahon dorixonasi” maqomiga ega. Hindiston dunyodagi arzon muqobil dori-darmonlarning 20 foizini va vaksinalarning 60 foizini ishlab chiqaradi. Bu global farmatsevtika zanjirining eng muhim bo‘g‘ini, demak. To‘rtinchisi, Hindiston kosmos va yuqori texnologiyalar bobida ilg‘or davlat. Mamlakat kosmik sanoatni o‘ta arzon va yuqori aniqlikda rivojlantirish modelini ko‘rsatdi. 2023-yilda Hindistonning “Chandrayan-3” apparati Oyning Janubiy qutbiga muvaffaqiyatli qo‘ngan dunyodagi birinchi mamlakat bo‘ldi. Bu ularning yuqori texnologik salohiyatini isbotlaydi.

Mamlakat ega bo‘lgan ulkan ichki bozor, yosh va bilimli kadrlar, kuchli IT va farmatsevtika sanoati, mustahkam moliyaviy rezervlar Hindistonga global kun tartibini belgilash imkonini bermoqda.

Mushtarak maqsadlar yo‘lidagi sheriklik

Yangi O‘zbekiston uchun eng yaqin va ishonchli strategik hamkorlardan biri sifatida Hindiston bilan aloqalarni mustahkamlash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Toshkent va Dehli, Samarqand va Agra, Buxoro va Haydarobod kabi qadimiy va muhtasham shaharlarimizni bog‘lab turuvchi umumiy tarixiy-madaniy ildizlar, Buyuk Ipak yo‘li zamonidan beri shakllangan ma’naviy yaqinlik bugungi siyosiy, iqtisodiy va texnologik ittifoqchiligimizning mustahkam poydevoridir. Hindiston tashqi siyosatining markaziy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan “Markaziy Osiyo bilan bog‘lanish” (“Connect Central Asia”) strategiyasida O‘zbekiston o‘ta muhim va mustahkam tayanch bo‘g‘in sifatida e’tirof etilmoqda.

Dunyoning eng tez rivojlanayotgan iqtisodiyotlaridan biri bo‘lgan Hindiston va Markaziy Osiyoning sanoat hamda demografik xabi hisoblangan O‘zbekiston o‘rtasidagi sheriklik so‘nggi yillarda sifat jihatdan butunlay yangi, amaliy bosqichga chiqdi. Ikki mamlakat munosabatlarining jadal rivojlanishi ortida davlat rahbarlari – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi o‘rtasidagi muntazam va yuqori darajadagi ishonchli muloqot turadi. Yetakchilar 2018-yildan beri deyarli har yili uchrashib kelmoqda (2018 va 2019-yillardagi davlat tashriflari, 2020-yilgi onlayn sammit, 2022-yilda Samarqandda, 2023-yilda BAAda, 2024-yilda Qozonda, 2025-yilda Tyanszinda o‘tkazilgan muloqotlar). 2025-yilning avgust oyidagi telefon muloqoti hamda sentabr oyida XXRda o‘tgan ShHT sammiti doirasidagi uchrashuv ikki tomonlama kun tartibini yanada boyitdi. Bu muloqotlar strategik sheriklikka yuqori darajada siyosiy turtki bermoqda.

Ikki mamlakat rahbarlari o‘zaro tovar ayirboshlash hajmini 1 mlrd. dollarga yetkazishni maqsad qilishgan. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda hind kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 375 taga yetdi. 2025-yilda Hindistonning O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan investitsiyalari 135 foizga o‘sib, 332 mln. dollarni tashkil etdi. Umumiy to‘plangan sarmoya miqdori 717 mln. dollardan oshdi va yaqin istiqbolda 1 mlrd. dollarlik marradan o‘tishi kutilmoqda. So‘nggi besh yilda O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi qariyb 2 baravarga ko‘paydi. Andijon viloyati va Gujarat shtati o‘rtasidagi sanoat va xususiy sektor kooperatsiyasi buning yorqin misoli.

Hindiston tomonidan ajratilgan 448 mln. dollarlik imtiyozli kredit liniyasi Qoraqalpog‘iston va Xorazmda ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash hamda yo‘l-qurilish texnikalarini sotib olish kabi ijtimoiy va infratuzilma loyihalariga yo‘naltirilgan. 2025-yilda 200 dan ortiq hind tadbirkorlari O‘zbekistondagi ko‘rgazmalarda (“UzFood”, “CAITME”, TMIF va boshqalar) ishtirok etdi, yuzdan ortiq o‘zbek delegatlari esa Hindistondagi forumlarda bo‘ldi. Nyu-Delida o‘tkazilgan Hindiston – Markaziy Osiyo biznes forumida o‘zbekistonlik tadbirkor ayollar 13 mln. dollarlik shartnomalar imzolashdi. Shunga qo‘shimcha ravishda, “UzVC” va “Startup India” o‘rtasida qo‘shma “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilmoqda. Hindistonning dunyoga mashhur “UPI” (Unified Payments Interface) lahzalik to‘lov tizimini O‘zbekistonning “Humo” va “Uzcard” tizimlari bilan integratsiya qilish bo‘yicha muzokaralar yakuniy bosqichda. Tizim sayyohlar va biznes vakillari uchun to‘lovlarni bir lahzada amalga oshirish imkonini beradi.

Ammo iqtisodiy munosabatlarimiz to‘liq salohiyat bilan ishlashi uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri yer usti transport yo‘llarining yo‘qligi asosiy to‘siq bo‘lib kelmoqda. Bu muammoni hal etish uchun Toshkent va Dehli geosiyosiy va logistik burilishni amalga oshirmoqda. Erondagi Chobahor portini birgalikda rivojlantirish va undan foydalanish Markaziy Osiyo hamda Hindistonni eng qisqa va arzon dengiz-quruqlik yo‘li orqali bog‘laydi. Hindiston, O‘zbekiston va Eron uch tomonlama ishchi guruhi bu borada faol ishlamoqda. Mazkur port orqali yuk tashish vaqtni 30 – 40 foizga, xarajatlarni esa 20 frizga qisqartiradi. O‘zbekiston Chobahor portini Xalqaro “Shimol – Janub” transport koridoriga integratsiya qilish tashabbusini qo‘llab-quvvatlaydi va unga qo‘shilish istagini bildirgan.

Inson kapitali – taraqqiyot garovi

Ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikning muhim ustuvor yo‘nalishi – inson kapitalini rivojlantirishdir. Bugungi kunda O‘zbekistonda Hindistonning 4 ta nufuzli oliygohi faoliyat yuritmoqda. “Amity University” (Toshkent) – IT va menejment; “Sharda University” (Andijon) – injeneriya, texnologiya va biznes; “Sambhram University” (Jizzax) – IT va oliy ta’lim; “Acharya University” (Buxoro) – innovatsiya va raqamli fanlar. Hindistonning texnik va iqtisodiy hamkorlik dasturi (ITEC) doirasida so‘nggi 5-yilda 1 144 nafar o‘zbekistonlik mutaxassis Hindistonda SI, IT, qayta tiklanuvchi energetika va farmatsevtika bo‘yicha malaka oshirdi. 2025-yilda O‘zbekistonda tahsil olayotgan hindistonlik tibbiyot talabalari soni 16 ming nafardan oshdi.

Hindistonning ilg‘or tibbiy tajribasi va texnologiyalari mamlakatimizda qator zamonaviy ko‘p tarmoqli klinikalar tashkil etilishiga zamin yaratdi. Kelajakdagi maqsad – bu klinikalar tarmog‘ini Hindistonning yetakchi tibbiyot universitetlari filiallari bilan kengaytirish, farmatsevtika sohasida qo‘shma loyihalarni ilgari surishdir. Xususan, Toshkentdagi Allergologiya markazida yangi referens-laboratoriya ochildi. Hind shifokorlari Toshkentdagi Milliy tibbiyot markazida onkologiya, transplantologiya va xirurgiya bo‘yicha yuzlab bepul ko‘rik va operatsiyalar o‘tkazdi. Tabobat va Ayurveda sohasida Hindistonning “AYUSH” vazirligi va O‘zbekiston Farmatsevtika agentligi o‘rtasida muloqot yo‘lga qo‘yildi.

Toshkent, Namangan shaharlaridan Dehli, Mumbay, Goa va Haydarobodga haftasiga 17 ta to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaparvoz amalga oshirilmoqda. 2025-yil iyul oyida konsullik muloqoti o‘tkazilib, viza va xavfsizlik masalalari soddalashtirildi. O‘tgan yilning o‘zida O‘zbekistonga 100 mingga yaqin hindistonlik sayyohlar tashrif buyurdi.

Raqamlashtirish bo‘yicha jahon peshqadami bo‘lgan Hindiston O‘zbekistonning IT-sektoriga katta turtki bermoqda. Javaharlal Neru nomidagi O‘zbek-Hind IT-markazi imkoniyatlari orqali blokcheyn, fintex, kiberxavfsizlik va dasturiy mahsulotlarni uchinchi mamlakatlar bozorlariga eksport qilish bo‘yicha qo‘shma strategiya hayotga tatbiq etilmoqda.

Sanoatlashuv davrida energetik samaradorlik va “yashil” transformatsiya muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatimiz Hindiston Bosh vaziri tashabbusi bilan tashkil etilgan Xalqaro quyosh alyansiga qo‘shilish orqali fotovoltaika va shamol energetikasida ushbu mamlakat tajribasi va qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini milliy iqtisodiyotga tatbiq qilmoqda.

Ikki xalq o‘rtasidagi munosabatlarning yana bir strategik ustuni – bu ma’naviy-madaniy aloqalar. Qo‘lyozma fondlarini raqamlashtirish, qo‘shma virtual kutubxonalar yaratish va umumiy tarixiy-arxeologik merosni tadqiq etish yuzasidan keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston va Hindiston bir-birini to‘ldira oladigan davlatlar hisoblanadi. Hindiston uchun O‘zbekiston – Markaziy Osiyoning eng ko‘p aholiga va yirik sanoat xabiga ega bo‘lgan, mintaqa ichkarisiga va Yevroosiyo quruqlik yo‘llariga chiqadigan strategik darvozadir. O‘zbekiston uchun Hindiston – 1,5 milliardlik bozor, global IT-autsorsing manbai, arzon va sifatli farmatsevtika hamda inson kapitali va “yashil” energetikani rivojlantirishda eng ishonchli hamkor. Asrlar davomida bir-birini boyitib kelgan o‘zbek va hind sivilizatsiyalari bugun XXI asrning global chaqiriqlariga birgalikda javob berib, do‘stlik va strategik sheriklikning mutlaqo yangi, sermahsul sahifasini ochmoqda.

Mash’al SAIDOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

29-avgust – 1-sentabr kunlari mamlakatimizdagi tuman (shahar), viloyat va respublika miqyosidagi barcha shifoxonalar, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, tibbiyot oliy o‘quv yurtlari klinikalari xodimlari navbatchilik asosida aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatadi.

Mustaqilligimizning 35 yilligiga

KELAJAK OLDIDA MAS’ULIYATNI HIS QILISH IMKONIYATI

Istiqlolning har bir yili biz uchun nafaqat quvonch va iftixor, balki bosib o‘tgan yo‘limizga nazar tashlash, erishilgan natijalarni xolis baholash va kelgusi taraqqiyotimiz haqida fikr yuritish uchun muhim fursatdir.

Men ortda qolgan yillarda amalga oshirilgan o‘zgarishlarni sanab o‘tirish fikridan yiroqman. Chunki shu yillar davomida xalqimiz hayotida ro‘y bergan ijobiy hodisalar, o‘zgarishlarga boy islohotlar shunchalik ko‘pki, hammasini sanab adog‘iga yetish mushkul. Men o‘z kasb-korimdan kelib chiqib, shu sohadagi islohotlar haqida qisqacha to‘xtalmoqchiman.

O‘tgan asrning oxirlariga qadar O‘zbekiston deganda faqat paxtachilik bilan shug‘ullanadigan, shu mahsulot bilan tanilgan hudud ko‘z oldimizda gavdalanardi. Muxtasar aytganda, O‘zbekiston agrar mamlakat sifatida e’tirof etilar, o‘zbek deganda paxta, paxta deganda o‘zbek tushunilar edi. Uning boshqa imkoniyatlari, boyliklari haqida nimagadir ko‘p gapirilmas, yer osti boyliklari, neft va gaz, boshqa tabiiy qazilmalari ko‘pam ko‘z-ko‘z qilinmasdi. Mustaqillik mamlakatimizning sanoat imkoniyatlarini yuzaga chiqardi. Xususan, mamlakatimizning neft-gaz, oltin va boshqa tabiiy zaxiralari ishga solinib, u xalq manfaati uchun ishlay boshladi.

Bu yillarda O‘zbekistonning neft va gaz sanoatida juda katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Asosiy maqsad – mamlakatning energetik mustaqilligini ta’minlash, neft va gazni chuqur qayta ishlash hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish edi.

Shu jihatdan, sohada istiqlolning ilk yillaridan boshlab jiddiy islohotlar amalga oshirila boshlandi.

1992-yilda “O‘zbekneftgaz” tizimi shakllantirildi. Bu bilan neft-gaz sohasini mustaqil davlat siyosati asosida boshqarish va rivojlantirishga asos solindi. Neft qazib chiqarish ko‘paytirildi. Ayniqsa, Qashqadaryodagi “Ko‘kdumaloq” kabi konlarni o‘zlashtirish va ularda zamonaviy uskunalarni joriy etishga katta e’tibor berildi.

Oradan ko‘p o‘tmay 1996-yilda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi.

Bu O‘zbekistonda neft xomashyosini zamonaviy texnologiyalar asosida qayta ishlash va yuqori sifatli yonilg‘i mahsulotlari olish imkoniyatini kengaytirdi. Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi ham rekonstruksiya qilindi.

Shu jarayonlar bilan baqamti gazni qayta ishlash sanoati ham rivojlandi. 1999-yilda Xo‘jaobod yer osti gaz saqlash ombori, 2001-yilda esa Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi ishga tushirildi.

Asta-sekin gaz-kimyo sanoatiga o‘tish kuchaydi. Chunki gazni shunchaki xomashyo yoki yarimtayyor mahsulot sifatida sotishdan ko‘ra undan tayyor mahsulot ishlab chiqarishning istiqbollari va iqtisodiy foydasi katta edi. Gazdan polietilen, polipropilen va boshqa kimyoviy mahsulotlar olish yo‘lga qo‘yildi. Natijada 2023-yilda tarmoqda 409 ming tonna polietilen va 82,2 ming tonna polipropilen ishlab chiqarilgan.

Ustyurt mintaqasida yangi konlar o‘zlashtirildi. Jumladan, 2021-yilda G‘arbiy Quyi Surgil va Quyi Sharqiy Berdaq konlari ishga tushirildi. Keyingi yillarda qidiruv-burg‘ilash ishlari yana kengaytirildi.

Gaz sanoati rivojlangan sari yangi-yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga ham talab ortdi. Yangi texnologiya – GTL ishlab chiqarishi yo‘lga qo‘yildi. “Uzbekistan GTL” loyihasi doirasida tabiiy gazdan sintetik suyuq yonilg‘i olish texnologiyasi joriy qilindi. 2022-yilda dastlabki sintetik nafta va dizel yonilg‘isi ishlab chiqarildi.

Energetika xavfsizligini mustahkamlash, energiya resurslari, jumladan, tabiiy gazga bo‘lgan ichki talabni barqaror qondirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini uzluksiz ta’minlash bo‘yicha ishlar izchil amalga oshirildi. Shu bilan birga, iqtisodiyot va aholining tabiiy gazga bo‘lgan ehtiyoji ortib borayotgani yangi zaxiralarni aniqlash, mavjud konlar samaradorligini oshirish va yangilarini ishga tushirishni taqozo etdi hamda bugungi kunda bu yo‘nalishda ham ishlar olib borilyapti.

So‘nggi yillarda e’tibor faqat yangi konlarni ochishga emas, balki mavjud konlar samaradorligini oshirish, geologik qidiruvni kuchaytirish, yangi quduqlar burg‘ilash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilmoqda. Masalan, 2025-yilda “O‘zbekneftgaz” korxonalari 25,2 mlrd. kub metr tabiiy gaz qazib chiqarib, 56 ta yangi quduq burg‘ilagan.

2026-2027-yillarda tabiiy gaz chiqarish hajmini barqaror darajada ta’minlash, 300 dan ortiq geologik-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

O‘z navbatida, gazni aholi va korxonalarga yetkazib berish tizimi ham modernizatsiya qilinmoqda: magistral quvurlar, kompressor stansiyalari va gaz taqsimlash tarmoqlari ta’mirlanmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston neft-gaz sanoati xomashyo qazib olishga asoslangan tizimdan neft va gazni qayta ishlash, gaz-kimyo mahsulotlari va sintetik yonilg‘i ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan zamonaviy sanoat tarmog‘iga aylandi. Yangi zavodlar, gazni saqlash inshootlari, qayta ishlash korxonalari, yangi konlar va zamonaviy texnologiyalar barpo etildi. Bular mamlakatning energetik xavfsizligi va sanoat salohiyatini mustahkamlashga xizmat qildi.

Bugun O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi bosqichida turibdi. Ayniqsa, so‘nggi o‘n yil mamlakatimiz hayotida tub o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash, sanoatni modernizatsiya qilish bilan bir qatorda ta’lim, tibbiyot, ijtimoiy himoya, xotin-qizlar va yoshlar siyosati, mahalla tizimi ham yangi mazmun kasb etdi.

Eng muhimi, bu islohotlarni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Chunki ularning barchasini birlashtirib turgan yagona g‘oya bor. Bu – inson qadrini yuksaltirish, fuqaroning munosib hayot kechirishi uchun zarur sharoitlarni yaratish va davlat xizmatlarini xalqqa yanada yaqinlashtirish.

Yaqinda 25-avgust kuni Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan mamlakatimiz hududlarida yangi obyektlarni ishga tushirish marosimida bu jarayonning keng ko‘lami yana bir bor namoyon bo‘ldi. Bir vaqtning o‘zida 72 ta yirik sanoat va servis loyihasi hamda 91 ta ijtimoiy soha obyekti – jami 163 ta obyekt foydalanishga topshirildi. Ularning umumiy qiymati qariyb 50 trln. so‘mni tashkil etib, yangi loyihalar hisobiga 15 mingta ish o‘rni yaratilishi belgilandi.

Bu raqamlar, albatta, mamlakatimizda iqtisodiy faollik va investitsiya jarayonlari tobora kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Ularning mazmuniga chuqurroq nazar tashlasak, bu loyihalar ortida yanada katta maqsad – iqtisodiy o‘sishni inson farovonligiga aylantirish vazifasi turganini ko‘ramiz.

So‘nggi o‘n yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti hajmining 2,5 barobardan ziyod oshgani, iqtisodiyot tarmoqlariga katta miqdorda xorijiy investitsiyalar jalb etilgani, minglab sanoat loyihalari amalga oshirilgani iqtisodiy salohiyatimizni o‘z qo‘limiz va imkoniyatlarimiz bilan yuksaltirayotganimizdan dalolat beradi.

Mustaqillikning buyuk qudrati ham shunda. U bizga tayyor kelajakni emas, aksincha o‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan yaratish imkonini berdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlarning eng muhim natijasi ham, menimcha, ana shu imkoniyatlar maydonining kengayganida namoyon bo‘lmoqda. Bugun tadbirkorlik qilish, bilim olish, yangi kasb egallash, xorijiy bozorlarga chiqish, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish, o‘z tashabbusini amalga oshirish uchun kechagidan ko‘ra ko‘proq imkoniyatlar mavjud. Bu imkoniyatlarni samarali natijaga aylantirish esa har birimizga bog‘liq. Mustaqillikning 35 yilligi shu ma’noda faqat o‘tgan tariximizga baho berish emas, bu – kelajak oldidagi mas’uliyatimizni yana bir bor his qilish davri.

Shuhrat ASLANOV,
Oliy Majlis Senatining
Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi a’zosi.

MILLIY BIRDAMLIK VA TARAQQIYOT ASOSI

Bu yil xalqimiz milliy istiqlolimizning o‘ttiz besh yillik shonli sanasini “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yarataylik!” degan bosh g‘oya asosida yuksak g‘urur va ko‘tarinki kayfiyat bilan nishonlamoqda. Zero, ushbu shior zamirida Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi, xalqimiz birligi va hamjihatligi, ertangi kunga bo‘lgan mustahkam ishonch kabi ezgu va hayotiy g‘oyalar mujassam.

Munosabat

Prezidentimizning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta’kidlanganidek, mustaqillik bizga shonu sharafimiz, muqaddas dinimiz, ona tilimiz va unutilayotgan milliy qadriyatlarimizni qaytarib berdi. Istiqlol tufayli biz o‘zligimizni anglab, ulug‘ ota-bobolarimizning munosib vorislari ekanimizni butun dunyoga namoyon etdik.

Darhaqiqat, mustaqillik – xalqimiz taqdirida tub burilish yasagan, mamlakatimiz taraqqiyoti uchun mutlaqo yangi imkoniyatlar eshigini ochgan buyuk tarixiy voqeadir. Istiqlol yillarida O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lini mustaqil belgilab, milliy manfaatlar, xalqimizning asriy orzu-intilishlari va hayotiy ehtiyojlariga tayangan holda izchil rivojlanish sari dadil qadam tashladi. Bugun mamlakatimizda kechayotgan keng ko‘lamli islohotlar, bunyodkorlik va yangilanish jarayonlari ana shu mustaqil taraqqiyot yo‘lining amaliy samarasini yaqqol namoyon etmoqda. Shahar va qishloqlar qiyofasining o‘zgarishi, iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi, aholi turmush darajasini yuksaltirishga qaratilgan ezgu tashabbuslar yurtimizdagi ulkan o‘zgarishlarning yorqin ifodasidir.

Eng muhimi, qo‘lga kiritilayotgan ulkan natijalar, ayniqsa, keyingi o‘n yilda davlatimiz rahbarining qat’iy siyosiy irodasi va tashabbuslari bilan barcha sohalarda amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlar markazida inson qadri, xalqimizning manfaati turibdi. Zero, o‘tgan davrda yurtimizda inson qadrini ulug‘lash va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar yuz berdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz O‘zbekistonni inson qadri ulug‘langan ijtimoiy davlatga aylantirishda mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘tgan davrda tadbirkorlikka ham keng yo‘l ochilib, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, raqobatbardosh sanoat tarmoqlarini yaratish, chekka tuman va qishloqlar infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha ulkan ishlar bajarildi. Iqtisodiyotimiz hajmi 2,5 barobardan ziyod oshib, iqtisodiyot tarmoqlariga 160 mlrd. dollar xorijiy investitsiya jalb qilingani mamlakatimiz taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu, avvalo, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, minglab yangi ish o‘rinlarini yaratish, eksport salohiyatini yuksaltirish, eng muhimi, xalqimizning daromadi va turmush farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, umumiy qiymati 76 mlrd. dollarlik 2 163 ta yirik sanoat loyihasi ishga tushirilib, qariyb 6 million nafar aholi doimiy ish o‘rni bilan ta’minlangani mamlakatimiz iqtisodiy qudrati tobora yuksalib, xalqimiz farovonligi izchil oshib borayotganidan dalolat beradi.

Birgina joriy yilning o‘zida 1,7 mlrd. dollarlik 56 ta yirik zamonaviy sanoat va servis obyekti ish boshlagani, 8,8 ming-ta yuqori daromadli ish o‘rni yaratilishi mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning amaliy samarasi, iqtisodiy taraqqiyot va xalq farovonligi yo‘lidagi izchil sa’y-harakatlarning yorqin natijasidir.



Davlatimiz rahbari nutqida aytilganidek, katta siyosiy iroda bilan O‘zbekiston dunyoga keng ochildi, chegara muammolari hal qilinib, qo‘shnilar bilan do‘stlik va hamkorlik mustahkamlandi. Valyuta, soliq, bojxona va investitsiya siyosatida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Natijada mamlakatimizning Iqtisodiy erkinlik indeksidagi o‘rni 80 pog‘ona yaxshilanib, O‘zbekiston iqtisodiyoti mo‘tadil erkin davlatlar qatoridan joy oldi.

Ushbu raqamlar esa mamlakatimiz iqtisodiyotida so‘nggi yillarda ro‘y bergan ulkan o‘zgarishlar va yuksalishlarning yorqin namunasidir. Zero, bugun mamlakatimizda barcha sohadagi islohotlar chuqurlashib, demokratik yangilanishlar o‘zining sifat jihatdan yangi pog‘onasiga ko‘tarilib bormoqda. Bunday o‘zgarishlarning tub ildizi esa davlatimiz rahbari ilgari surgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va so‘nggi o‘n yilda amalga oshirilgan keng miqyosli islohotlardan iborat, desak, ayni haqiqat.

Ilgari iqtisodiyotimizga yiliga 2-3 mlrd. dollar xorijiy investitsiya jalb qilingan bo‘lsa, hozir mazkur ko‘rsatkich 40 – 50 mlrd. dollarni tashkil etmoqda. Bu shunchaki raqamlar o‘sishi emas, balki O‘zbekistonga bo‘lgan ishonch, qiziqish va hamkorlik istagining tobora mustahkamlanayotgani ifodasi. Muhimi, mamlakatimizga kirib kelayotgan har bir sarmoya yangi imkoniyatlar, zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or g‘oyalar uchun yo‘l ochyapti. Bu esa Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotining dunyoga tobora ochilayotgani, sarmoyadorlar uchun jozibador va istiqbolli makonga aylanayotganini yaqqol namoyon etmoqda.

Prezidentimiz nutqi xalqimizni mustaqillikning beqiyos qadrini yanada chuqur anglashga, bugungi tinch va farovon hayotning zamirida ulkan mehnat, matonat va birdamlik mujassam ekanini his etishga xizmat qiladi. Unda belgilangan ustuvor maqsad va vazifalar Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish, inson qadrini ulug‘lash, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni izchil davom ettirish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘lida muhim dasturilamal bo‘ladi. Eng muhimi, bu barchamizni Vatan ravnaqi uchun birgalikda harakat qilishga, mustaqilligimizni qadrlashga va uni kelajak avlod uchun asrab-avaylashga undaydi.

Ravshan FOZILOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Konferensiya

TINCHLIK VA UMUMIY FAROVONLIK YO‘LIDA

26 – 28-avgust kunlari Kambodja Qirolligining Pnompen shahrida “Tinchlik va umumiy farovonlik yo‘lidagi hamjihatlik: xalqaro huquqni mustahkamlash va mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish” mavzuida parlament spikerlarining II parlamentlararo konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi raisi Abdulhakim Eshmuratov boshchiligidagi O‘zbekiston Oliy Majlisi delegatsiyasi qatnashdi.

Ushbu nufuzli xalqaro tadbirda Kambodja, Pokiston, Rossiya, Belarus, Meksika, Gana, Bruney, Myanma hamda boshqa bir qator davlatlar parlamentlari a’zolari dunyoda tinchlikni mustahkamlash, parlament diplomatiyasi va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish masalalari yuzasidan fikr almashdi.

A. Eshmuratov o‘z ma’ruzasida parlament diplomatiyasida O‘zbekiston o‘ziga xos milliy tajribaga ega ekanligini, Markaziy Osiyo-da yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro ishonch va amaliy hamkorlik muhiti sezilarli darajada mustahkamlanganini, murakkab masalalarni muzokaralar orqali hal etish amaliyotiga alohida urg‘u berilayotganini ta’kidladi.

Tadbir doirasida Kambodja qiroli Norodom Siamoni O‘zbekiston Oliy Majlisi delegatsiyasi bilan uchrashib, ikki tomonlama hamkorlik masalalarini muhokama qildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Oliy Majlisi delegatsiyasi Rossiya, Belarus, Vyetnam parlamentlari vakillari bilan parlamentlararo hamkorlikni kuchaytirish masalasi yuzasidan uchrashuvlar o‘tkazdi.

O‘zbekiston parlamenti a’zolari Kambodja milliy brendi ostida ishlab chiqariladigan mahsulotlar ko‘rgazmasida ham ishtirok etdi.

“Xalq so‘zi”.

YOSHLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH – USTUVOR VAZIFA

Shu yil 4 – 6-sentabr kunlari Samarqand shahrida “Murakkab davrda barcha uchun shaxsiy huquq, adolat va qadr-qimmatni tiklash” mavzuida Parlamentlararo Ittifoq Yosh parlament a’zolarining XII global konferensiyasi bo‘lib o‘tadi.

Anjuman

Ayni tadbir va uning parlamentlararo munosabatlarni mustahkamlashdagi ahamiyati borasida dunyoning yetakchi OAVlarida maqolalar e’lon qilinmoqda. Xususan, Pokistonning “World Tribune Pakistan” nashrida Samarqand shahrida o‘tkaziladigan Parlamentlararo Ittifoq Yosh parlament a’zolarining XII global konferensiyasiga bag‘ishlangan axborot e’lon qilindi.

Nashrda xabar berilishicha, nufuzli anjumanda 183 mamlakat vakillari, 15 ta xalqaro tashkilot, 50 nafarga yaqin doimiy kuzatuvchilar hamda 300 nafardan ortiq ishtirokchilar qatnashishi kutilmoqda.

Konferensiya doirasida bugungi kunda yoshlar duch kelayotgan dolzarb muammolar, ularning huquq va manfaatlarini ta’minlash, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish bilan bog‘liq masalalar muhokama qilinadi.

Shuningdek, tadbir kun tartibidan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo hamkorlikning o‘rniga bag‘ishlangan xalqaro forum o‘tkazish ham ko‘zda tutilgan.

“Xalq so‘zi”.

INSONPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI

Odam hayotda ba’zan bilmay yoki o‘ylamay xato qiladi. Uning oqibatini esa vaqt o‘tib anglab yetadi. Muhimi – inson xatosini tan olib, undan chin dildan pushaymon bo‘lishi va hayotini yaxshi tomonga o‘zgartirishga intilishi. Ana shunday kishiga ishonch bildirib, yana bir imkoniyat berish insonparvarlikning yorqin ifodasidir.

Aks sado

Xalqimiz azal-azaldan insonparvarlik, bag‘rikenglik, mehr-oqibat va kechirimlilikni eng ulug‘ qadriyatlardan deb bilgan. Xato qilgan insonga ishonch bildirish, uni to‘g‘ri yo‘lga qaytarish, qo‘llab-quvvatlab, qalbida yana umid uyg‘otish – xalqimizga xos ezgu fazilat. Bu xayrli an’ana bugun ham yurtimizda o‘z qadri va ahamiyatini yo‘qotmay, davom etib kelmoqda.

Vatanimiz mustaqilligining o‘ttiz besh yilligini nishonlash arafasida davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan insonparvarlik siyosatining amaliy tasdig‘i sifatida “Jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan bir guruh shaxslarni afv etish to‘g‘risida”gi Farmon mamlakatimizda insonparvarlik tamoyillari ustuvor ekanini yana bir bor namoyon qildi.

Mazkur hujjat inson qadri va sha’nini ulug‘lash, adashgan fuqarolarga tuzalish va jamiyatda munosib o‘rin egallash uchun yana bir imkoniyat berishga qaratilgan ezgu siyosatning amaliy ifodasi bo‘ldi, desak, ayni haqiqat. Unga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan jazo muddatini o‘tayotgan hamda qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan 852 nafar shaxs afv etildi.

Bu ezgu qaror tufayli ko‘plab xonadonlarga quvonch kirib, oilalar bag‘ri yana to‘ldi. Eng muhimi, afv etilgan fuqarolar bildirilgan yuksak ishonchni oqlab, o‘tmishdagi xatolaridan tegishli xulosa chiqarib, hayotda to‘g‘ri yo‘ldan borishga qat’iy ahd qiladi. Chunki berilgan yana bir imkoniyat insonni ezgu maqsadlar sari undab, uning jamiyatda munosib o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

Afv etilgan shaxslarning 604 nafari asosiy jazodan to‘liq ozod bo‘ldi, 115 nafari jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, 52 nafarining ozodlikdan mahrum etish jazosi esa yengilrog‘i bilan almashtirildi. Shuningdek, 81 nafar shaxsga tayinlangan jazoning muddatlari qisqartirildi. Bu afv etilgan shaxslarga oilasi bag‘riga qaytish, mehnat qilish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish va hayotini yangidan boshlash uchun imkoniyat, degani.

Mazkur farmon yangi taraqqiyot davrida yurtimizda insonparvar, huquqiy demokratik davlat qurish yo‘lidagi islohotlarning davlatimiz rahbari tomonidan hayotimizga nechog‘li ulkan miqyos va keng ko‘lamlarda tatbiq etilayotganining navbatdagi o‘ziga xos ko‘rinishidir. Zotan, jinoyat uchun jazo muqarrarligini anglagan, tuzalish yo‘liga o‘tgan, afv etishini so‘rab, Prezidentga iltimosnoma bilan murojaat qilgan jazoni ijro etish muassasalaridagi har bir mahkum individual o‘rganilib, sog‘lig‘i, oilaviy holati chuqur tahlil qilinmoqda.

Farmon ijrosi yuzasidan afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag‘riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug‘ullanishi, sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yib, jamiyatda munosib o‘rin topishlari uchun ularga ko‘mak berish bo‘yicha mas’ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi. Bu ularning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga, jamiyatimizda mehr-oqibat, hamjihatlik va bag‘rikenglik muhitini yanada kuchaytirishga, yaratilayotgan imkoniyatlardan tegishli xulosa chiqarib, yurt taraqqiyotiga o‘z ulushini qo‘shishi, oilasi va yurtimizga naf keltirishiga muhim omil bo‘ladi.

E’tibor bering, ushbu hujjat bilan 852 nafar shaxs afv etildi. Bu kichik raqam emas. Ularning har birining ortida ko‘zi to‘rt bo‘lib kutayotgan oila a’zolari, yaqinlari turganini inobatga olsak, har kuni farzandining “Dadam qayerda, qachon keladi?” degan savoliga javob topolmay, yurak-bag‘ri ezilgan onalarni ko‘z oldimizga keltirsak, uning mohiyatini yanada teranroq anglaymiz.

Ushbu xayrli ish Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi bayrami arafasida ro‘y bergani zamirida ham o‘ziga xos ramziy ma’no mujassam. Zero, bu – yurtimizda inson qadrini ulug‘lash, uning taqdiri va kelajagiga daxldorlik bilan munosabatda bo‘lishga qaratilgan insonparvar siyosatning yana bir yorqin ifodasi. Ayni paytda mazkur ezgu qadam xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan bag‘rikenglik, kechirimlilik, oliyjanoblik va mehr-muruvvat singari yuksak fazilatlarning hayotdagi amaliy namoyonidir. Bu esa mustaqillikning eng ulug‘ qadriyati – inson, uning sha’ni, qadr-qimmati va taqdiriga e’tibor ekanini yana bir bor namoyon etdi.

Har qanday inson xato qilishi mumkin. Muhimi, buni anglab, to‘g‘ri yo‘lga qaytishdir. Bunday insonlarga ishonch bildirish, jamiyatga qaytishi uchun sharoit yaratish demokratik jamiyatning yuksak fazilati sanaladi. Afv etilgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash faqat mas’ul idoralarning vazifasi bo‘lib qolmasligi kerak. Bu jarayonda mahalla, jamoatchilik va biz deputatlar ham faol qatnashishimiz lozim. Ularning muammolarini eshitib, amaliy yordam ko‘rsatsak, jamiyatga moslashishiga katta hissa qo‘shgan bo‘lamiz. Zotan, bu yurtda inson aziz, uning qadr-qimmati har narsadan ustun.

Nargiza SALOMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

2026/2027 o‘quv yilidan boshlab O‘zbekistondagi qo‘shimcha 1 568 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabida yangi mezonlarga asoslangan baholash tizimi joriy etiladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 22 170 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni – 02.25 Topshirildi – 04.00 1 2 3 4 5 6